(3). Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент, “Фан”, 2013, 5-бет. https://kutubxona.adpi.uz/preview?filename=120dxudoyberganovamatnningantropotsentriktadkikoti.pdf

(4). Фёдоров А.И. Образная речь. Новосибирск, “Наука”, Сибирское отделение, 1985, 28 с. https://ruslan-neo.nsu.ru/pwb/detail?db=BOOKS&id=RU%5CNSU%5Cbooks%5C10279

(5). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago; London: University of Chicago Press, 1980, p. 5. https://cs.uwaterloo.ca/~jhoey/teaching/cs886-affect/papers/LakoffJohnsonMetaphorsWeLiveBy.pdf

(6). Newmark P.A Textbook of Translation. New York; London, Prentice Hall, 1988, p.104. https:// ru. scribd. com/document/975142435/A-textbook-of-translation-Peter-Newmark-Z-Library-1

(7). Nida E.A., Taber Ch.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J. Brill, 1969, p. 12. https://books.google.co.uz/books/about/The_theory_and_practice_of_Biblical_tran.html?id=jPIeAAAAIAAJ&redir_esc=y

(8). Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дис. … д-ра филол. наук, Москва, 1996, 236 с.

(9). Рзаева Р.К. Вопросы художественного перевода: лирика каракалпакского поэта И.Юсупова: учебно-методическое пособие, Нукус, 2015, с. 25. https://ndpi.uz/uz

(10). Гончарова Е.А. Когнитивно-коммуникативные параметры ситуации порождения, восприятия и интерпретации литературного текста. Язык. Текст. Культура: Studia Linguistica. Вып. XVI. Санкт-Петербург, 2007, с. 87. https://ephil.herzen.spb.ru/wp-content/uploads/2009/05/studia-16.pdf

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti (PhD); qodirovamarifat@gmail.com);
Fayzullayeva Yulduz (1-bosqich talabasi; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

JAMIYATDAGI MA’NAVIY INQIROZ VA INSON RUHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Ibodinovning “Latofat do‘konidagi qatl” qissasi, asarning badiiy-falsafiy mohiyati, qahramonlardagi ruhiy o‘zgarishlar, jamiyatning ma’naviy inqiroziga sabab bo‘luvchi illatlar tahlil qilinadi. Muallif qissada “qatl” tushunchasi orqali faqatgina jismoniy o‘limni emas, balki ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi, jamiyatdagi axloqiy tanazzulni, inson tuyg‘ularining so‘nishi va shaxsning ichki dunyosida yuz beradigan ziddiyatlarni aks ettiradi. Qolaversa, qahramonning ichki kechinmalari orqali jamiyatdagi ijtimoiy-maishiy muammolar o‘rtaga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar*: qissa, qahramon, qatl, qadriyat, ruhiyat, psixologiya, ijtimoiy muammo.*

Кодирова Марифат Абдуллаевна (доцент кафедры “Литература периода независимости и литературоведение” Института языков и культуры народов Центральной Азии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (кандидат наук); qodirovamarifat@gmail.com),
Файзуллаева Юлдуз (студентка 1 курса; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

ДУХОВНЫЙ КРИЗИС В ОБЩЕСТВЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется повесть Алишера Ибодинова «Убийство в магазине “Латофат”, её художественно-философская сущность, духовно-психологические изменения героев, а также факторы, способствующие нравственному кризису общества. Посредством понятия “убийство” автор раскрывает не только физическую смерть, но и разрушение духовных ценностей, нравственный упадок общества, угасание человеческих чувств и внутренние противоречия личности. Кроме того, через внутренние переживания героев освещаются актуальные социально-бытовые проблемы современного общества.*

Ключевые слова*: повесть, герой, убийство, ценности, духовность, психология, социальные проблемы.*

Qodirova Ma’rifat Abdullayevna (Assistant Professor of the Department of “Literature of the Independence Period and Literary Theory” of the Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Samarkand State University named after Sharof Rashidov (PhD); qodirovamarifat@gmail.com),
Fayzullayeva Yulduz (1st year student; fayzullayeva yulduz@gmail.com)

THE SPIRITUAL CRISIS IN SOCIETY AND THE HUMAN SPIRIT

Annotation. *This article analyzes Alisher Ibodinov’s novella “The Murder in Latofat’s Shop”, focusing on its artistic and philosophical essence, the psychological transformations of the characters, and the factors contributing to the spiritual crisis of society. Through the concept of “murder”, the author depicts not only physical death but also the destruction of moral values, ethical decline, the fading of human emotions, and the inner conflicts experienced by individuals. Furthermore, the protagonist’s inner experiences serve to reveal the social and everyday problems existing within society.*

Keywords*: novella, protagonist, murder, values, spirituality, psychology, social issues.*

Kirish. “Qissa, dastlab, xalq ogʻzaki ijodida shakllangan” [14]. Dastlab, qissalar ijro qilingan, keyinchali,k ular iqtidorli shaxslar tomonidan qayta ishlanib, kitob holiga keltirilgan. Bu janrda muallif faqat tashqi voqealarni emas, balki qahramonlarning ichki dunyosi, psixologik holati va xarakter-xususiyatini ham keng yoritadi. Shuningdek, qissa janri jamiyatdagi muammolarni badiiy uslubda namoyon qiladi. Shu oʻrinda Alisher Ibodinov oʻzining mashhur “Latofat doʻkonidagi qatl” asari orqali qissa janriga salmoqli hissa qoʻshgan.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy oʻzbek adabiyoti vakillaridan biri Alisher Ibodinov ijodida ham inson va jamiyat munosabatlari, maʼnaviy qadriyatlar, axloqiy tanazzul hamda ruhiy kechinmalar muhim oʻrin egallaydi. Yozuvchining “Latofat doʻkonidagi qatl” qissasi jamiyatdagi muammolarni, maʼnaviyatning inqiroziga sabab boʻlayotgan illatlarni, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurashni badiiy vositalar yordamida yoritgan. qolaversa, ushbu qissa hozirgi kungacha voqealar rivoji va sirli hodisalari orqali turli muhokamalarga sabab boʻlmoqda.

Alisher Ibodinovning “Latofat doʻkonidagi qatl” qissasi detektiv janrda yozilganlik xususiyati va maʼno mazmuni bilan kitobxonlar orasida mashhur. Adib detektiv qissa janrida juda qobiliyatli yozuvchi boʻlgan. Bilamizki, u haqida “Detektiv janr deyarli yoʻq edi. 50-yillarda “Shohida emas, bargida” degan bir kitobcha boʻlar edi. Undan keyin boshqa bunday asar koʻrmadim”, deb izohlaydi Oʻzbekiston milliy me-diamarkazi rahbari oʻrinbosari Abdulholiq Abdurazzoqov. Tadqiqotchilar qissani tahlil qilishda unga “Qis-sa detektiv janrda mahorat bilan yozilgan”, deya taʼrif-tavsif berishadi. Chunki undagi qahramonlar harakati va voqealar rivoji bugungi kunga aloqador boʻlgan muammolarni yaqqol yoritadi. Yana asarda qotillik ustida qilingan taxminlar, sirli hodisalar va konfliktlar kitobxonlarnining qiziqishiga sabab boʻladi. Tahlil-larga koʻra, qahramonlarning qanday razillik botqogʻiga tushishi va buning salbiy oqibatlari mahorat bilan aks ettirilgan boʻlib, kitobxonni xuddi shu hodisalar atrofida yashayotgandek his qildiradi. Detektiv qissa talab qiladigan barcha shartlar (jinoyat va sirli hodisa, tergov jarayoni, dalil va ishoralar, shubhali qahramonlar, keskin sujet va hokazo) ushbu asarda mujassamlashgan. Masalan, latofatning oʻlimiga sabab boʻlgan barcha ishora va ashyolar ahrorga qarshi edi. Bunda ahror koʻp marotaba tergov qilinib, jinoyat ishi aniqlandi. Oʻsha vaqtda kitobxon ahror bilan yashaydi uning hissiyotlarini tushunadi. Tekshiruvlar chuqur va eʼtibor bilan olib borilganligi tufayli haqiqiy jinoyatchi aniqlanadi.

Tadqiqotning metadologiyasi. “Latofat doʻkonidagi qatl” qissasi jamiyatdagi koʻzga koʻrinmas, lekin jamiyatni ich ichidan yemirayotgan muammolarning salbiy oqibatlarini koʻrsatib berdi. Ziddiyatli voqealar Ahrorjon ismli qahramon yordamida ochib berilgan boʻlib, uning yoʻqchilik tufayli pul topish niyatida shaharga ketishi bilan boshlanadi. Asarda jamiyat maʼnaviyatini pasaytiruvchi omillardan biri bu qahramonlarning milliy qadriyatlardan koʻra yevropacha uslubni ustun bilib yashashi koʻrsatiladi. Xususan, bosh qahramonlaridan biri Latofat murakkab psixologik ruhiyatga ega qahramon boʻlib, u yevropacha uslubda yashaydi, asosan, shu ruhda fikrlaydi. Buni Ahrorjonning Latofatni uyiga tugʻilgan kunga borganidagi mehmonxonasi va dasturxonini bezatish uslubidan bilsa boʻladi. Asarda “Mehmonxona 80-yillarda urf boʻlgan Chexiyaning qoramtir eman garnituri bilan jihozlangan, biroq garniturning devor-shkafi ichi qimmatbaho billur idishlar, chinni oʻyinchoqlar bilan toʻldirilgan. Polga qalin Belgiya gilamlari toʻshalgan. Dasturxon yevropacha tuzalgan, har bir mehmon uchun alohida kumush qoshiq, sanchqi, pichoqlar, hatto ovqat payti taqiladigan oppoq boʻyin sochiqlar ham u yer bu yerda konusday dikkayib turibdi” [2;17-b.]. Asardagi qatl tushunchasi, asosanm Latofatning oʻlimi bilan bogʻliq hodisa emas, balki milliy qadriyatlarning unutilishi, insonlarning bir-biriga nisbatan adolatsizlik va yomonlik qilishi, pul, boylik uchun tubanlashib borayotgani nazarda tutilgan. Chunki ular buning ortidan oʻz hayotlariga oʻlim hukmini yaqinlashtirmoqda. Masalan, asarning bosh qahramoni Ahrorjonning togʻasi pul, boylik, ichkilik ortidan quvib notoʻgʻri yoʻllarga kirib qoladi va jiyanini ham shu ishga aralashtiradi. Natijada qilgan gunohlari oshkor boʻlib, ichkilik ichib oʻzini jarga mashina bilan otib yuboradi. Bundan tashqari, muallif asar oxirida koʻplab salbiy obrazdagi qahramonlarni fojiali yakun bilan tasvirlaydi. Misol uchun, Jontas va Abdurahmon kabi giyohvandlik savdosi bilan shugʻullanuvchilar. Ularning oʻlimini oddiy emas, ayanchli holatda aks ettiradi. Bu bilan muallif har qanday notoʻgʻri qilingan ishning jazosi borligini, unga hamma javob berishini isbotlamoqchi boʻlgan. Bu insonlarga berilgan jazo qonuniy emas, balki taqdir hukmi orqali amalga oshirilgan. Latofat, Abdurahmon, Jontas kabi qahramonlarning oʻlimiga aloqador boʻlgan narsalardan biri giyohvand moddalar savdosi hisoblanadi. Chunki ular giyohvandlik savosida ishtirokchi boʻlib, uni yetkazib beruvchi boʻlishgan. Lekin eng ogʻiri Ahrorning togʻasi ham bunga aloqador boʻlsa-da, bu ishning qanchalik xavfli ekanini bila turib, oʻz jiyanini shu tubsiz quduqqa tortadi. Afsuski, bu xato yoʻl ularni hayotini yomon tomonga oʻzgartirib yubordi. Muallif shu hodisa orqali giyohvand moddalarning inson hayotiga hech qachon foyda keltirmasligini isbotlagan.

Asarning voqealar rivoji va ijtimoiy muhitini ifodalashda inson ruhiyati muhim rol o'ynaydi. Chunki qahramonlar turli xil xarakter, xususiyat, psixologiyaga ega inson sifatida tasvirlanadi. Ularning har biri boshqa dunyoda yashaydi, boshqacha fikrlaydi. Shu orqali muallif qissada jamiyatdagi turli toifadagi odamlarni namoyish qilishga uringan. Ahror tabiatan sodda va ishonuvchan qishloq yigiti. Shuning uchun u giyohvandfurushlarga giyohvand moddani yetkazib berishda bilmasdan qo'shilgan. Shuningdek, Latofatning ko'knori haqidagi gaplariga chindan ishongan Ahror haqida asarda shunday ta'rif beriladi: "Shu tobda Latofat koknor emas, Ahrorjonning jonini so'rasa ham u ikkilanmas edi..." [2;9-b.]. Latofat chiroyli va xushchaqchaq ayol sifatida gavdalanadi. U ko'rinishidan zamonaviy, yevropacha uslubda yashaydigan ayoldek ko'rinsa-da, ichki ruhiyati murakkab, bardoshli va ruhiy ziddiyatlarga to'la ayol qahramon. Asar davomida uni salbiy xususiyatga ega qahramon deb tasavvur qilish mumkin. Ammo Latofatning Ahrorga yozgan oxirgi maktubida uning qanday yaxshi xususiyatlari borligini bilish mumkin. Asarda ijobiy qahramonlar bilan birga salbiy qahramonlar ham ishtirok etgan. Ulardan biri Yoqub, u giyohvand savdosining boshliqlaridan biri. Yoqub pul, chiroyli ayollarga o'ch bo'lsa-da, bir so'zli qahramon. Uning ayollarga bo'lgan hirsi yuqori bo'lganligi tufayli latofatning hayotiga salbiy ta'sir qildi. Yoqubning jinoyat yo'lidagi odamlari ko'p bo'lgan, bu uning jamiyat hayotida chuqur ildiz otganligini bildiradi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali oddiy insonlarning hayotiga qanday yomon ta'sir qilishini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Bundan tashqari, ijtimoiy muhit inson ruhiyatiga ta'sir qiladi, sababi hech kim azaldan yomon bo'lishni, noto'ri yo'lga kirib xato qilishni xohlamaydi, aksincha, atrofdagilar unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tahlil va natijalar. Asar yakuniga kelib, barcha muammolar o'z yechimini topadi. Ahror Latofatni o'ldirmagani isbotlanib, haqiqiy aybdor aniqlanadi. Chunki Latofatni Ahror o'ldirmagan edi. Giyohvandlik savdosiga qo'shilgan ko'pchilik o'z joniga qasd qiladi yoki o'ldirib ketiladi. Latofatning yagona o'gli Shuhrat Ahrorda qoladi. Bu bilan muallif haqiqat doim g'alaba qozonishini, noto'gri yo'lning oxiri fojia ekanini aytmoqchi bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muallif "Latofat do'konidagi qatl" qissasi orqali jamiyatdagi ma'naviy inqirozning inson hayotiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarda inson ruhiy olami va ma'naviy qarashlari muhim bo'lib, uning hayotdagi tanlovlariga bevosita tasir ko'rsatadi. Qissa qadriyatlarning susayishi, pul, davlatga ruju qo'yish va axloqiy buzilishlarning fojiali oqibatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Toshkent, 2020.
(2). Ibodinov A. Latofat do'konidagi qatl. Toshkent, "Sharq", 2001.

Allaberganova Umida Mammatovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Fakultetlararo chet tillar" kafedrasi o'qituvchisi)

"TRISTAN VA IZOLDA" HAMDA "TOHIR VA ZUHRA" DOSTONLARIDA O'RTA ASR ROMANTIKASI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada G'arb va Sharq o'rta asr adabiyotining ikkita nodir yodgorligi – "Tristan va Izolda" hamda "Tohir va Zuhra" dostonlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikkala asarning sujet qurilishi, obrazlar tizimi, ziddiyat tabiati va badiiy-falsafiy xususiyatlaridagi umumiylik va o'ziga xosliklar o'rganiladi. Ikkala dostonda ham oshiqlarning taqiqlangan muhabbati, ijtimoiy to'siqlar va sadoqat masalalari markaziy o'rin egallashi, biroq bu mavzularning yechimi G'arb va Sharq madaniyati, xususan, G'arbda kurtoaziya muhabbati va Sharqda tasavvufiy-falsafiy qarashlar doirasida turlicha talqin etilishi ko'rsatib beriladi. Maqolada "Tristan va Izolda"dagi taqdiriy sevgi-jo'shqinlik ("tragik fatalizm") va "Tohir va Zuhra"dagi sadoqat va adolat uchun kurash ("ijtimoiy va axloqiy drama") aspektlari qiyoslanadi.*

Kalit so'zlar: *o'rta asr romantikasi, 'Tristan va Izolda", "Tohir va Zuhra", qiyosiy adabiyotshunoslik, doston, kurtoaziya muhabbati, folklor, xalq dostonlari, badiiy tahlil.*

Аллаберганова Умида Мамматовна (преподаватель, Ургенческий государственный университет имени Абу Райхона Беруни, факультет иностранной философии, межфакультетское отделение иностранных языков)

"ТРИСТАН И ИЗОЛЬДА" И "ТОХИР И ЗУХРА": СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДНЕВЕКОВОЙ РОМАНТИКИ

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ двух выдающихся памятников западной и восточной средневековой литературы – эпосов "Тристан и Изольда" и "Тохир и Зухра". Исследуются общие черты и специфические особенности сюжетостроения, системы*